



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)



QARSHI - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**JADIDCHILIK HARAKATI VA
UNING TURKIY XALQLAR
ADABIYOTIGA TA’SIRINI
O‘RGANISH MUAMMOSI**

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)

2023-yil 13-oktabr

Qarshi
‘Nasaf’ NMIU
2023

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘ining 1-ilovasi “2023-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq Qarshi davlat universitetida 2023-yil 13-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta‘sirini o‘rganish muammosi” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislarni o‘z ichiga oladi.

Konferensiya materiallarida o‘zbek mumtoz adabiyoti va jadidchilik masalalari, jadidchilik g‘oyalari va yangi o‘zbek adabiyoti, jadidchilik va turkiy xalqlar adabiyoti, jadidchilik va turkiy tillar muammosi, ta‘lim bosqichlarida jadidchilik va jadid adabiyotining o‘qitilishi masalalari qamrab olingan.

To‘plam soha mutaxassislari, filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar hamda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

KONFERENSIYA TASHKILY QO‘MITASI TARKIBI:

D.H.Nabiyev – universitet rektori, professor

A.E.Xolmurodov – o‘quv ishlari prorektori, professor

I.R.Bekpo‘latov – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor

O‘.Sh.Abdullayev – yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, PhD, dots.

X.G‘.Djurayev – moliya-iqtisod ishlari prorektori

B.X.Rizayev – Filologiya fakulteti dekani, PhD, dots.

D.J.Rahmatova – universitet tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori, PhD, dots.

MAS‘UL MUHARRIR: **N.N.Shodmonov** – f.f.d., prof.
MAS‘UL KOTIB: **G.H.Ernazarova** – f.f.d., prof.

TAQRIZCHILAR:

N.A.Jabborov – f.f.d., prof.

O.R.Jo‘raboyev – f.f.n., katta ilmiy xodim

TAHRIR HAY‘ATI:

D.To‘rayev – f.f.d., prof.

B.Yo‘ldoshev – f.f.d., prof.

G.Imomova – f.f.d., dots.

Sh.Nuriddinov – f.f.d., dots.

R.Jumayev – PhD, dots.

S.Mo‘minova – f.f.n., dots.

N.Umarova – PhD, dots.

G.Ravshanova – PhD, dots.

U.Abdullayeva – PhD, dots.

G‘.Shodmonov – PhD, dots.

*Qarshi davlat universiteti Kengashining 2023-yil
5-oktabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

© To‘plam, 2023-yil
© “Nasaf” NMIU, 2023-yil

ISBN 978-9910-9711-9-8

bunday erkak qanday oila boshlig'i bo'ladi, bolalariga qanday tarbiya beradi. bu toifadagi kishilardan mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni, atrofdagilar, jamiyat nima naf ko'radi? Bu illat qayerdan paydo bo'lgan va qachon? Ichkilikbozlik, fohishabozlik avval chorizm, keyin sho'rolar tomonidan norasmiy tarzda ommalashtirilgan. Xuddi shu yo'l bilan millatni yo'qotish, uni mahv etish, biror narsa haqida jiddiy fikr yuritishdan saqlab turish mumkin edi. Buni yaxshi bilgan istilochilar millatni ichdan kemirishni reja qilishgan edi. Shu bilan xalqni manqurtga aylantirib, uni asoratda, qullikda saqlab turmoqchi edilar. Dahriylikni targ'ib qilgan kommunistik mafkura millatni tili, dini, tarixi va qadimiy an'analaridan ayirishni maqsad qilishgan va buning chorasini ichkilikbozlik va axloqiy buzulqilikda ko'rishgandi.

Jadid adabiyotida ayni shu ikki masalaga katta e'tibor qaratilgan. Behbudiyning "Padarkush"idan boshlab, Hoji Muin, Nusratulla Qudratullo, Abdulla Qodiriy, Abdulla Balxiy, Shukrullagacha bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilishgan. Shu davrda yaratilgan "To'y", "Baxtsiz kuyov", "Juvonmarg", "Axmoq", "Ko'knori", "Mazluma xotin" kabi asarlarda ham shu illat keskin qoralangan.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, Abdulla Qodiriyning "Uloqda", Abdulhamid Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Oydin kechalarda" hikoyalari o'zbek hikoyachiligining dastlabki ko'rinishlari bo'lishiga qaramasdan, hikoya matni asosida milliylik va an'anaviylik masalalari "yarq" etib ko'zga tashlanadi va uni jadid yozuvchilari muvaffaqiyatli amalga oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юнусов М. Бархаёт анъаналар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 17.
2. Шарофиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 46.
3. Чўлпон. Асарлар. III жилдлик, II жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1993. – Б. 285-291.
4. Шарофиддинов О. Чўлпоннинг кичик насрий асарлари. Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. 2-сон. – Б. 10.
5. Дўстқораев Б. Икки буюк сиймо. – Ўзбекистон АС. 2009, 13-сон.

USLUBNING KO'CHIMGA ASOSLANGAN XUSUSIY HOLLARI ABDURAUFI FITRAT TALQINI

H.P.Eshonqulov

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Taniqli olim A.Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari muallifning e'tirofiga ko'ra "Adabiyot muallimlari ham havaslilar uchun qo'llanma" [1, 11], sifatida yozilgan bo'lsa-da, undagi ko'pgina nazariy qarashlarga bo'lgan munosabat hamon o'zining qimmatini saqlab turibdi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, muallif "Adabiyot qoidalari"da ijodkorning uslubi masalasiga alohida e'tibor qaratishi va uning umumiy hollari sifatida "tuzuklik", "soflik", "ohang", "ochiqlik", "uyg'unlik" kabilardan bahs yuritib, uslubning xususiy hollari sifatida badiiy san'atlarga e'tibor qaratishi badiiylikning mohiyatini anglatishda o'ziga xos bir uslub sifatida namoyon bo'ladi. Ayni choqda zamonaviy adabiyotshunosligimizda ham metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, perifraza, allegoriya (majoz), ramz (simvol) singari ko'chim turlari sirasiga epitet, oksimiron, litota, mubolag'a kabilarni ham qo'shish hollari ham kuzatilmoqdaki [2, 148], nazarimizda, masalaga A.Fitrat qarashlari nuqtai nazaridan yondashilsa, uning mohiyati oydinlashib qoladi.

A.Fitrat uslubning xususiy hollaridan bahs etib, sifatlash, o'xshatish, istiora, kinoya, majoz, jonlantirish, so'rash, mubolag'a, undash, qarshilik, qaytish (ruju'), kesish, burulish, tajnis, laffu nashr (yig'ib tarqatish), saj', ta'rix, muammo singari badiiy-tasviriy vositalarni sodda va ravon uslubda, chiroyli dalillar bilan tushuntirarkan, bulardan istiora, kinoya va majozda ma'no ko'chishi kuzatilishida diqqatni qaratadi. Jumladan, olim istiorani: "Bir so'zning o'z ma'nosidan

boshqa bir ma'no uchun ishlatilmagidir. Shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bir turlik o'xshashlik bo'lsin" [1, 50], - deya ta'rif berib, istioraning o'xshatishga asoslanganligi, uning ochiq istiora va yopiq istiora ko'rinishlari mavjudligini yuqorida qayd etilgan uslubda yoritadi. Bundan ayonlashadiki, uslubning xususiy hollariga mansub bo'lgan istiora ko'chimning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

A.Fitrat kinoyaning mohiyatini anglatishda xalq donishmandligining namunasi bo'lgan maqollarga tayanadi. Jumladan, olim "Sinalmagan otning sirtidan o'tma", "Bo'zchi belboqqa yolchimas", "Eshak bir tanga, to'qim ming tanga" singari "el gaplari (matallari)"da [1, 54] o'z ma'nosidan ko'ra, ikkinchi ma'no maqsad qilinganini bayon etadi. Shuningdek, "Arabcha ta'viz, o'zbekcha nisham – piching – uchuruq atalgan bu yo'sun gaplashish (tosh otib gapirmak kabi) borkim, adabiyotda kinoyaning bir bo'lagi sanaladir" [1, 54], - deya mulohazalariga oydinlik kiritadi. Bundan tashqari, "Adabiyot qoidalari" bu tasviriy vositaning Saydalining "Qarg'alar zori" nomli asarida, Elbekning hikoyalarida go'zal namunalar borligi aytib o'tilib, Muhammad Solihning "Shayboniyнома" asariga murojaat etiladi. Bu bilan olim kinoya ko'chimning bir ko'rinishi ekanligini nihoyatda bir sodda uslubda yoritishga erishadi.

Ma'lumki, ko'chimning yuqorida nomlari sanab o'tilgan ko'rinishlarini bir-biridan farqlash, ular orasida aniq chegarani qo'ya olish masalasi ham nihoyatda ahamiyatli sanalib, bu ham ijodkorning adabiy niyatini aniqroq tushunishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sharq mumtoz poetikasining bilimdoni Atoullloh Husayniyning "Badoyye' us-sanoyye'" asarida bu borada nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgani holda "Istiora majozning bir nav'idir va majoz haqiqatning ziddidir" [3, 219] singari ta'riflarga ham duch kelamiz. A.Fitrat esa o'xshatish asosida vujudga kelgan istiora, kinoya va majoz singari ko'chim turlarini bir-biridan farqlash maqsadida ularning ta'riflarini yonma-yon keltiradi. Avvalo, uning majozni anglatish uchun keltirgan "Botuning qalami yaxshi", "Navoiyni ko'p o'qiyman", "Majlis so'ngida qaror bergan" singari misollari majozning istioradan farqli ekanini anglashimiz uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Ayni choqda quyida ko'chirilgan ta'riflar olimning masala mohiyatini anglatishda qiyosdan nihoyatda o'rinli foydalanganini namoyon etadi:

“ 1. Iki so'zning har birini o'z ma'nosida qoldirib, bir-biriga o'xshatilib aytilsa, o'xshatish bo'ladir.

2. Bir so'z o'zining chin ma'nosidan olinib, shunga o'xshag'an boshqa bir ma'noda ishlatilsa, istiora bo'ladir.

3. Bir so'z o'zining chin ma'nosidan olinmay shunga o'xshag'on bir ma'noda ishlatilsa, kinoya bo'ladir.

4. Bir so'z o'zining ma'nosidan olinib, shunga o'xshatishdan boshqa nima bo'lsa mayli, biroq onglashilarlik bo'lsin". [1, 56]

A.Fitrat to'rtinchi ta'rifda majozni nazarda tutadi. Olimning ko'chim turlarini bir-biridan farqlashda ularning o'xshatishga asoslanganidan kelib chiqib, ta'riflarni bir o'rinda keltirishi ular orasidagi farqlilikni aniq tushunishga omil bo'ladi. Buni his ettirish uchun taniqli adabiyotshunos aynan istioraning ochiq istiora ko'rinishi bilan majozni bir-biridan farqlash zarurati borligini nazarda tutib, ochiq istiora ta'rifini majoz ta'rifi bilan solishtiradi. Natijada majozda o'xshatishdan tashqari, metonimiya usuli bilan ma'no ko'chishi kuzatilishi ham ayonlashib qoladi. A.Fitratning bunday qiyoslash usullarining mohiyatini teran idrok etib, keyingi tadqiqotlarda qo'llash, ayni uslubda o'quv qo'llanmalarini yozish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotar:

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar IV jild. Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - 336 b.

2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: "Akademnashr", 2013. -408 b.

3. Husayniy A. Badoyi' u-s-sanoyi'. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1981. – 400 b.

MUNDARIJA

	Fidoi ma'rifatparvarlar faoliyati – ilmiy tadqiqotlar ko'zgasida	3
1-SHO'BA: O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI VA JADIDCHILIK MASALALARI		
D.H. Nabiye	Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.....	5
Nurboy Jabborov,	Jadid estetikasining shakllanishi.....	9
Islam Jemeney	Ismoil Gasprinskiyning Alisher Navoiy ijodiga munosabati	16
Uzoq Jo'raqulov	Fitrat – mashrabshunos.....	20
Zaynabidin Abdirashidov	Yo'l obrazi: an'ana va novatorlik.....	23
Rashid Jumayev	Jadid she'riyatida mumtoz an'analar takomili.....	26
Odiljon Avaznazarov	Muhsiniy she'riyatida ijtimoiy muhit talqini.....	29
Zilola Namozova	Komil Xorazmiy masnaviylarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	32
Furqat To'xtamurutov	Komil Xorazmiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida	36
Dilnoza Xudayarova	Jadidchilik hamda mumtoz adabiyotning uyg'unlashuvi.....	38
Nigora Bo'tayeva	Salohiyning gul va bulbul obrazi jadid adabiyoti namoyandasi Abdulla Avloniy talqinida.....	40
Baxtiyor Siddiqov	Navoiyning forsiy merosi Fitrat talqinida.....	42
Surayyo Shodiyeva	Komil Xorazmiy ijodida an'anaviy poetik obrazlar tadriji	43
Yusuf Amonov	2-SHO'BA. JADIDCHILIK G'OYALARI VA YANGI O'ZBEK ADABIYOTI	
Ziyadulla Kenjayev	Behbudiy publitsistikasining mavzuiy xarakteri.....	46
Muhayyo Yaminova	Jadidchilik va milliy adabiyot.....	52
	Miskinning ma'rifiy qarashlari.....	56
	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati.....	59
	Jadid hikoyalarida milliylik va an'analar talqini.....	62
	Uslubning ko'chimga asoslangan xususiy hollari abdurauf fitrat talqini.....	67
H.P.Eshonqulov	Ikki jadid munavvari – Hamza va Cho'lpon munosabatlari xususida.....	69
Otabek Jo'raboyev	Cho'lpon va jadidchilik.....	73
Shahlo Hojiyeva	O'zbek dramaturgiyasi rivojida Hamzaning o'rni.....	75
Saodat Mo'minova	Adabiy-estetik tafakkur – poetik obraz yangilanishi asosi.....	78
Dildora Raxmonova	Turkistonda milliy matbuot va adabiyot.....	80
Abdumurod Arslonov,	Is'hoqxon To'ra Ibrat she'riyatining mavzu ko'lami va janr xususiyatlari.....	84
Nodira Egamkulova	Jadid hajviyotining rivojlanish bosqichi.....	86
Ozodaxon Boltaboyeva	Behbudiyning adabiy tanqidga doir qarashlari.....	89
Gulruxbegim Ravshanova	Fitrat publitsistikasining ijtimoiy-estetik talqini.....	92
Oybarchin Abdulhakimova	Usmon Nosir adabiy merosining tasnifiy tahlili.....	95
To'lqin Kenjayev	Barmoq – milliy she'riyatimizning asosiy vazni.....	100
Shahnoza Qahhorova,	Jadid romanlarida badiiy modifikatsiya.....	102
Farhod Qiyomov	Hamza she'rlarida zamondosh ayollar obrazi ("Oymisan yo qamara..." she'ri tahlili misolida).....	105
Shohida Karamova	Jadidlar ijodida ziyoli obrazi.....	108
Nilufar Sultonova	Jadid dramaturgiyasida inson va istiqloq konsepsiyasi (Behbudiy va Fitrat dramalari misolida).....	111
Nodira Xolikova	Jadid adiblarning ijodida millat talqini.....	114
G'iyosiddin Shodmonov,		
Shohista Shermamatova		
Maxsuda Berdimuratova		
Normurod Avazov,		

Nilufar Cho'liyeva	Badiiy asarda "Kecha, tun" so'zlarining g'oyaviy-badiiy qirralari.....	118
Muhayyo Rayxonova	O'zbek she'riyatida erk talqini.....	120
Umida Abdullayeva	Jadid shoirlari ijodida ijroviy lirika.....	123
Latofat Tajibayeva	Yangi o'zbek she'riyatining mazmuniy yangilanishi	126
Kamol Hakimov	"O'tkan kunlar" romanida tarixiylik masalasi.....	128
Dilorom Sodiqova	Cho'lpon- tong yulduzi.....	131
Muhabbat Rajabaliyeva	Mahmudkhoja Behbudi'nin aydınlanması veya bilim adamı Poyon Ravshanov'un gerçekleri.....	133
Klara Dusyorova	Jadidchilik va o'zbek adabiyotining rivojlanish masalalari....	134
Феруза Юсупова	Идеал справедливости и критерии прогресса в идеологии джадидизма.....	136
Nilufar Umarova	Jadid ziyolilari ijodida milliy etika masalalari.....	138
Sherzod Akramov		
Farhod Qiyomov	Образ бadiiy tasvirining manbalari.....	140
Sherzod Usmonov	Jadidlar va o'zbek milliy demokratik matbuot masalalari....	142
Mohigul Ergasheva	Begali Qosimov – jadidshunos.....	144
Lola Qo'ziboyeva	Jadid obrazining dramatik talqinlari.....	146
Nurali Murodullayev	Fitratning jadidchilik qarashlari to'grisida.....	149
Mehri Kenjayeva	Cho'lponning "Yangi men" she'rida yo'lovchi obrazi talqini.....	151
Muslima Ahmadjonova	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar tabiati tahlili.....	153
Munisa Nishonova	Nozimaxonim ijodida ma'rifat talqinlari.....	155
3- SHO'BA. JADIDCHILIK VA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI		
Saidbek Boltabayev	Jadidchilik harakati bo'yicha turkiyada amalga oshirilgan dissertatsiyalar	158
Oybek Barziyev	Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va turkman, tatar adabiyotidagi g'oyaviy mushtarakliklar.....	164
Sarvarbek Tuliboyev	Turkiston madaniy hayotining turk matbuotida yoritilishi	167
4- SHO'BA. JADIDCHILIK VA TURKIY TILLAR MUAMMOSI		
Хаджар Гусейнова	Выражение количеств лексическим путем на турецких языках.....	172
Xo'jamurod Jabborov	O'zbek tili sofligini saqlashda jadidlarning o'rni.....	179
Yusuf Avcı	Ceditçilikte dil ve edebiyat gayelerinin uygulanışı ve bir karşılaştırma.....	182
Qo'ldosh Pardayev	Jadidlar ijodida til masalasi.....	185
Xurshid Ahmadov	O'zbek milliy ziyolilarning 1929-yilgi alifbo islohotiga munosabati.....	188
5-SHO'BA. TA'LIM BOSQICHLAIDA JADIDCHILIK VA JADID ADABIYOTINING O'QITILISHI		
Saodat Mo'minova	Oliy ta'limda "Qodiriy – o'zbek romanchilik maktabining asoschisi" mavzusidagi amaliy mashg'ulotni tashkil etish..	191
Umriniso To'rayeva	O'zbek jadid adabiyotini o'rganish masalalari adabiyotshunos Begali Qosimov tadqiqotlari misolida).....	194
Okila Turakulova	Jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik merosi.....	197
Soxibaxon Islomova	Qatag'on qilingan ijodkorlar asarlarini qayta nashr qilish muammolari.....	199

ILMIY NASHR

**JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA
TA'SIRINI O'RGANISH MUAMMOSI**

(Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari)

Muharrir: *Y.Ziyodov.*
Texnik muharrir: *K.Temirova.*
Musahhah: *Y.Ziyodov.*
Sahifalovchi: *K. Eshmurodova.*

Nashriyot litsenziyasi № 5858-775f-17d6-89d3-a021-1994-5946. 22.07.2020. Terishga 02.10.2023-yilda berildi. Bosishga 10.10.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84_{1/8}. Shartli bosma tabog'i-24,51. Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturasini. Ofset qog'ozi. Nashr bosma tabog'i-25,2. 2023-shartnoma. 36-buyurtma. 10 nusxada. 206 bet. Erkin narxda.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi» MCHJ, 180118.
Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 22-uy.

«Nasaf nashriyot – matbaa ijodiy uyi», MCHJda chop etildi.
180118. Qarshi shahri, “O‘zbekiston ovozi” ko‘chasi, 33-uy

